

**MILLIY VALYUTANING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI:
O‘ZBEKISTONDA 1989–2026 YILLARDAGI PUL TIZIMI
TRANSFORMATSIYASI**

Alisherov Axmadali Adxamjon o‘g‘li

University of Business and Science

Tarix mutaxassisligi bo‘yicha 2-kurs magistranti

axmadillo698@gmail.com

Xushyorov Javohir Dilshodbek o‘g‘li

University of Business and Science

Tarix mutaxassisligi bo‘yicha 2-kurs magistranti

xushyorovj@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida 1989–2026 yillar oralig‘ida amalga oshirilgan pul islohotlari, inflyatsiya jarayonlari va pul munosabatlaridagi bosqichli o‘zgarishlar tarixiy va iqtisodiy tahlil asosida yoritilgan. Tadqiqot davomida o‘tish davrining ilk bosqichlaridagi muammolar, milliy valyutaning joriy etilishi, konvertatsiya siyosatining evolyutsiyasi, inflyatsiyani jilovlash bo‘yicha davlat siyosati hamda raqamli pul muomalasiga o‘tish jarayonlari tahlil qilingan. Maqolada O‘zbekiston tajribasi asosida rivojlanayotgan mamlakatlar uchun amaliy xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: Milliy valyuta, pul tizimi transformatsiyasi, so‘mning shakllanishi, kupon pullar, Inflyatsiya bosqichlari, Moliyaviy barqarorlik, Banknotalar dizayni, Pul islohotlari, raqamli to‘lov tizimi.

Аннотация: В статье рассматриваются поэтапные изменения в денежной системе, инфляционные процессы и валютные реформы в Республике Узбекистан в период с 1989 по 2026 годы. На основе историко-экономического анализа выявлены ключевые этапы трансформации: от переходного периода и введения национальной валюты до либерализации валютной политики и цифровизации денежного обращения. Также представлены практические

выводы, основанные на опыте Узбекистана, применимые к развивающимся странам.

Ключевые слова: Национальная валюта, трансформация денежной системы, формирование сума, купонные деньги, этапы инфляции, финансовая стабильность, дизайн банкнот, денежные реформы, цифровая платёжная система.

Abstract: This article explores the phased changes in Uzbekistan's monetary system, inflation processes, and currency reforms between 1989 and 2026. Through a historical and economic analysis, the research highlights the key stages of transformation: from the transition period and the introduction of the national currency to the liberalization of currency policy and the shift towards digital financial systems. Practical insights are also drawn from Uzbekistan's experience for other developing economies.

Keywords: National currency, monetary system transformation, formation of the soum, coupon money, inflation stages, financial stability, banknote design, currency reforms, digital payment system.

1989–1991 yillarda O‘zbekiston SSRda yagona valyuta sifatida **SSSR rubli** (ruscha: "Советский рубль") muomalada bo‘lgan. Bu pul birligi Sovet Ittifoqining barcha respublikalarida umumiy iqtisodiy makon vositasi sifatida xizmat qilgan.

O‘zbekistonda muomalada quyidagi nominaldagi SSSR banknotlari mavjud edi:

1 rubl, 3 rubl, 5 rubl, 10 rubl, 25 rubl, 50 rubl, 100 rubl.

Bu banknotlar 1961, 1991-yillardagi nashrlarga tegishli bo‘lib, ularning ustida **SSSR Davlat bankining** belgisi va rus tilidagi yozuvlar mavjud edi. Ular asosan **Goznak** (*Gosudarstvennyy znak, ya'ni Davlat bosmaxonasi*) tomonidan Moskvada chop etilgan.

1980-yillarning oxiri va 1990-yillarning boshlarida SSSRda iqtisodiy tanazzul kuchaygani sababli pulning qiymati keskin pasaya boshladi. 1989–1991 yillar oralig‘ida inflyatsiya darajasi nazoratdan chiqib, rubldagi jamg‘armalarning

qadrsizlanishiga olib keldi. O'zbekiston aholisi rubldan boshqa muqobil valyuta vositalarini, jumladan, AQSh dollarini "qora bozor" orqali muomalaga kiritishni boshladi. 1991-yilda SSSR parchalanishi bilan sobiq ittifoq respublikalari o'z milliy valutalarini joriy eta boshladi. O'zbekiston esa 1993-yilgacha SSSR rubli o'rnini bosuvchi Rossiya rubli va keyinchalik kupon so'm orqali mustaqil valyuta tizimiga o'tdi.



Birinchi rasm: 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100 rubl banknotlari to'plami

Ikkinchi rasm: rangli vizual tasvir, yuqori rezolyutsiyali foto, rus tilidagi “*Билет Государственного Банка СССР*” yozuvi bilan



Uchinchi va to'rtinchi rasm: 1961 seriyali banknotlarning turli nominallari.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki yillarida mamlakatda iqtisodiyotni bozor munosabatlariga moslashtirish, moliyaviy va pul-kredit tizimini isloh qilish zaruriyati keskinlashdi. Ayniqsa, sobiq SSSR iqtisodiy tizimidan mustaqil chiqish jarayonida milliy valutaning mavjud emasligi jiddiy muammolardan biri bo'lib qoldi. Ana shunday murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda davlat o'zining muvaqqat milliy valutasini sifatida **kupon so'mni** muomalaga kiritdi va kupon so'mning joriy etilish sabablari, xususiyatlari va tarixiy ahamiyatini kasb etdi. 1993-yil 15-noyabrdan boshlab O'zbekiston Respublikasi hududida rasmiy to'lov

vositasi sifatida muvaqqat milliy valuta - **kupon so‘m** muomalaga chiqarildi. Bu qaror mamlakatning pul-kredit suverenitetini mustahkamlash hamda sobiq Ittifoq rubli bilan bog‘liq moliyaviy beqarorlikdan xalos bo‘lish maqsadida qabul qilingan edi. Kupon so‘m dastlab 1:1 nisbatda sobiq SSSR rubli bilan almashtirildi. Biroq u inflyatsiyaviy jarayonlardan kuchli ta’sirlangan va qisqa muddatli iqtisodiy barqarorlik vositasi sifatida xizmat qilgan.

Kupon so‘mlar qog‘oz shaklida chiqarilib, himoya darajasi past, sodda ko‘rinishda bo‘lgan. Uning nominal qiymatlari quyidagicha belgilangan edi: **1, 3, 5, 10, 25, 50, 100, 200, 500, 1000 va 5000 kupon(5-rasm)**. Bunday ko‘p nominal birliklarning muomalada bo‘lishi o‘sha davrdagi yuqori inflyatsiya sur‘atlari bilan bevosita bog‘liq edi. Kupon so‘mlar asosan ichki savdo-sotiq va xizmatlar ko‘rsatish sohasida qo‘llanilgan bo‘lsa-da, ularning barqarorligi past bo‘lib, aholining moliyaviy ishonchini to‘liq oqlamadi. Shu sababli kupon so‘m uzoq muddatli milliy valuta sifatida emas, balki muvaqqat vosita sifatida qabul qilindi. Oradan yetti oy o‘tgach, ya’ni 1994-yil 1-iyuldan boshlab O‘zbekiston Respublikasining doimiy milliy valutasiga aylangan **so‘m** muomalaga kiritildi. Kupon so‘m esa o‘z tarixiy vazifasini bajarib, iqtisodiy suverenitet sari muhim bosqichlardan biri bo‘lib qoldi.

Quyida 1993-yilda muomalaga kiritilgan so‘m-kuponlarning original qog‘oz pullari tasvirlari keltirilgan (dinamik dizayn, o‘xshash ko‘rinishga ega barcha nominallar uchun bir xil asosiy elementlar mavjud):

Old tomon: O‘zbekiston davlat gerbi.

Orqa tomon: Samarqanddagi Registon majmuasidagi Sherdor madrasa tasviri

Banknotalarni Angliyadagi “Harrison & Sons Ltd” chop etgan firma tayyorlagan va chop etilgan nominal qiymatlar: 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100, 200, 500, 1000, 5000 va 10000 so‘m-kupon hisoblanadi.



5-rasm

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash, pul-kredit siyosatini milliy manfaatlar asosida shakllantirish va barqaror moliyaviy tizimni yaratish yo'lida 1994-yil tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. 1994-yil 1-iyul kuni O'zbekiston Respublikasi o'zining asosiy milliy valyutasi – **so'mni** muomalaga chiqardi. Bu valyuta ilgari joriy etilgan muvaqqat pul birligi – kupon so'mni almashtirdi. Yangi valuta 1:1000 nisbatda almashtirildi, ya'ni **1 so'm = 1000 kuponga** tenglashtirildi. Bu pul islohoti mamlakatda mustahkam va o'ziga xos pul tizimini yaratish sari muhim qadam bo'ldi. Milliy so'm dastlab **1, 3, 5, 10, 25, 50 va 100 so'mlik banknotlar** shaklida muomalaga chiqarildi. (6-rasm). Ushbu nominal birliklar aholi o'rtasida kundalik hisob-kitoblarda foydalanish uchun mo'ljallangan edi. Ammo inflyatsiya sur'atlarining o'sib borishi natijasida yuqori nominaldagi pullarga ehtiyoj ortdi. Shuning uchun so'mning quyidagi katta nominal birliklari bosqichma-bosqich joriy etildi:

2001-yilda – 500 so'mlik banknota,

2009-yilda – 1000 so'mlik banknota,

2013-yilda – 5000 so'mlik banknota,

2017-yilda – 10 000 va 50 000 so'mlik banknotalar,

2019-yilda – 100 000 so'mlik banknota muomalaga kiritildi. (7-rasm)

Bu jarayonlar O'zbekiston iqtisodiyotida yuz berayotgan o'zgarishlar, narxlar darajasi va inflyatsiya dinamikasining bevosita aksidir.



6-rasm

7-rasm

Ushbu banknotalar 1997–2017 yillar oralig‘ida bosilgan “eski” seriyalarga tegishli. Ular ichida eng ko‘p tarqalganlar 1 000 va 5 000 so‘mlar bo‘lib, 10 000 so‘m esa 2017-yildan boshlab muomalaga kirdi. Har bir banknot rang, tasvir va xavfsizlik xususiyatlari bilan farqlanadi.

Yangi banknotalar avvalgilarga nisbatan yanada zamonaviy dizayn, yaxshilangan himoya elementlari va yuqori bosma texnologiyalar asosida tayyorlangan.

So‘nggi yillarda esa 200 000 so‘mlik banknota loyihalashtirilib muomalaga chiqarishi ortidan aholining yirik miqdordagi hisob-kitoblarida qulaylik yaratishga qaratilgan bo‘lib, mamlakatdagi pul muomalasi hajmining ortib borayotganini ko‘rsatadi.



- 2 000 so'm 2021 Buxoro archi, karvon yo'llari va tarixiy naqshlar
- 5 000 so'm 2021 Sherdor madrasa (Samarqand), arxeologik topilmalar
- 10 000 so'm 2021 Kukaldosh madrasasi (Toshkent), Ipak yo'li motivlari
- 20 000 so'm 2021 Qoi Krylgan Qala yodgorligi, tarixiy naqshlar
- 50 000 so'm 2021 Al-Hakim at-Termiziy maqbarasi, ko'k-binafsha rang bag'ishlangan
- 100 000 so'm 2021 Ichan Qal'a (Xiva), Xorazm arxeologiyasi motifi
- 200 000 so'm 2022 Xudoyorxon O'rdasi (Qo'qon xoni saroyi), Farg'ona yodgorligi tasvirlari

Pul munosabatlari va moliyaviy tizimdagi o'zgarishlarham bo'ldi.

1990-yillar boshida: Natural ayirboshlash va soxta pul aylanishi

Pul munosabatlari darajasi past bo'lib, savdo asosan natural ayirboshlash orqali amalga oshirilardi. Mahsulotlar davlat narxlarida, ammo xizmatlar bozor narxlarida sotilardi, bu esa ikki darajali iqtisodiyotni yuzaga keltirdi. Soxta hisob-kitoblar, korxonalararo qarzdorliklar va to'lovga layoqatsizlik keng tarqaldi. 2000-2010 yillar: Bank tizimi va soliq islohotlari. Markaziy bank tizimi kuchaytirildi, depozitlar himoyalaniishi yo'lga qo'yildi. Raqamli texnologiyalar hali keng joriy qilinmagan edi, lekin ayrim banklar plastik kartalar chiqarishni boshladi. Naqd pulga qaramlik juda yuqori bo'lib, yirik savdolar ham ko'pincha "naqd"da amalga oshirilardi. 2017-yildan hozirgacha valyuta bozorining erkinlashtirilishi bank sektoriga ishonchni oshirdi. Kreditlash mexanizmlari, ayniqsa mikrocredit va iste'mol kreditlari jadal rivojlandi. Elektron to'lovlar: HUMO, Uzcard, QR-kodli to'lovlar ommalashdi. 2020-yillardan boshlab fintech xizmatlari, mobil banking (Apelsin, Payme, Click) kengaydi. Raqamli so'm va kripto-aktivlar muhokama qilinmoqda (Markaziy bank pilot loyihalari).

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng sobiq Ittifoq iqtisodiy tizimining izidan yurishda davom etishga majbur bo'ldi. 1991-1994 yillarda inflyatsiya darajasi 1000-2000% atrofida bo'ldi. Bu holat iqtisodiyotda ko'p omilli inqirozni yuzaga keltirdi. Markazlashtirilgan ta'minot tizimi izdan chiqqan edi. Ishlab chiqarish zanjirlari uzildi. Narxlar erkinlashtirildi, lekin daromadlar real qiymati pasayib ketdi. SSSR rublining muomaladan chiqarilishi kechiktirildi, bu esa pul massasining beqarorligi va inflyatsiyaning kuchayishiga sabab bo'ldi. Yalpi ichki mahsulot (YaIM) 1991-1995 yillarda 15-20% kamaydi. Bu yillarda nafaqat narxlar o'sdi, balki aholining pulga bo'lgan ishonchi ham keskin kamaydi. Shuning uchun 1993-yilning noyabrida kupon so'm, oradan bir yil o'tib esa 1994-yil 1-iyuldan rasmiy milliy valyuta - so'm muomalaga kiritildi. 1995-2000 yillar: Barqarorlashtirish siyosatining boshlanishi. Inflyatsiya pasayish tendensiyasiga ega bo'ldi, biroq hanuz 40-80% oralig'ida yuqori darajada saqlanib qoldi. Markaziy bank bir nechta muhim choralarni amalga oshirdi.

Pul-kredit siyosatining qat'iylashtirilishi, monetar bazani nazorat ostiga olish. Byudjet taqchilligining kamaytirilishi.

Tijorat banklari faoliyatining regulyatsiyaga o'tkazilishi. Bu davrda iqtisodiyotda bozor mexanizmlari shakllanayotgan bo'lsa-da, hali ham valyuta konvertatsiyasi mavjud emasdi. Aholi qora bozor orqali valyuta almashtirar edi, bu esa inflyatsiyani pasaytirishda to'siq bo'ldi. 2001-2015 yillar: Inflyatsiyaning barqarorlashuvi va yashirin farqlar Inflyatsiya darajasi bu davrda nisbatan past darajaga -10-18% oralig'iga tushdi. Asosiy ijobiy o'zgarishlar esa O'zbekiston iqtisodiyoti har yili 7-9% sur'atda o'sib bordi. Tashqi qarz darajasi past saqlanib, budjet defitsiti nazorat ostida bo'ldi. Rasmiy kurs va qora bozor kursi o'rtasidagi farq 100-120% ga yetgan bo'lsa-da, rasmiy statistikada inflyatsiya past ko'rsatildi. Biroq, importga qaramlik saqlanib qolgani va valyuta konvertatsiyasining cheklanganligi inflyatsiyani real ravishda pasaytirishga to'sqinlik qildi. 2016-2020 yillarda rivojlanish sezilarli darajada o'sdi. Makroiqtisodiy liberallashtirish va narxlarining erkinlashuvi Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida boshlanilgan islohotlar doirasida 2017-yilda so'm erkin konvertatsiyaga o'tkazildi.

Bu o'zgarish qisqa muddatda inflyatsiyaning oshishiga olib keldi. 2017-yilda so'm devalvatsiyaga uchradi, rasmiy kurs 4210 so'mdan bir kunda 8100 so'mga tushirildi. Barcha import va tariflar yangi kurs asosida moslashtirildi, bu esa narxlar darajasining keskin o'sishini keltirib chiqardi. 2018-2019 yillarda inflyatsiya 14-16% bo'lib, Markaziy bank mustaqil pul-kredit siyosatini boshladi. Shu bilan birga, byudjet yordami va ijtimoiy to'lovlar inflyatsion zarbani yumshatdi. 2021-2026 yillar: Maqsadli inflyatsiya siyosatiga o'tish 2021-yildan boshlab Markaziy bank inflyatsiyani bosqichma-bosqich pasaytirish siyosatini amalga oshirmoqda. Bu yillarda quyidagi yutuqlar kuzatildi:

2023-yilda inflyatsiya ~10.6%

2024-yilda prognoz ~9.0%

2025-2026 yillar prognozi: 7-8% oralig'ida.

Faol foiz stavkasi siyosati (asosiy stavka 14–16% atrofida), Banklararo kreditlash mexanizmlarining rivojlanishi, Pul massasini nazorat qilish va fiskal siyosat bilan muvofiqlashtirish buning asosiy omillaridandir

Xulosa.

O‘zbekiston Respublikasining 1989-2026 yillardagi pul islohotlari, inflyatsiya darajasidagi keskin o‘zgarishlar va pul munosabatlarining evolyutsion shakllanishi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ldi. Mustaqillikning dastlabki yillarida sobiq SSSRdan meros qolgan markazlashtirilgan moliyaviy va bank tizimining inqirozi, milliy valyuta-so‘mning joriy qilinishi, shuningdek, bosqichma-bosqich o‘tkazilgan pul islohotlari milliy iqtisodiyotning bozor mexanizmlariga moslashuvini ta‘minladi. 1990-yillardagi giperinflyatsiya va kupon tizimi, muomaladagi pul tanqisligi iqtisodiy o‘tish davrining murakkabligidan dalolat bersa-da, 2000-yillardan e‘tiboran barqarorlashtirishga qaratilgan fiskal va monetar chora-tadbirlar sezilarli ijobiy natijalarni taqdim etdi. Ayniqsa, 2017-yildan so‘ng erkin valyuta konvertatsiyasi, soliq-bujet siyosatining liberallasuvi, inflyatsiyani maqsadli boshqarish rejimiga o‘tish, valyuta bozorining liberallasuvi O‘zbekiston pul tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqdi. 2020-yillardan keyingi bosqichda raqamli transformatsiya, fintech xizmatlarining kengayishi, mobil ilovalarga asoslangan to‘lov tizimlari va Markaziy bankning nisbatan oshkora va proaktiv siyosati mamlakat pul-moliya tizimining shaffofligi va raqobatbardoshligini oshirmoqda. Bu esa nafaqat ichki iqtisodiy muvozanatni mustahkamlashga, balki xorijiy investorlar ishonchini orttirishga ham xizmat qilmoqda. Mazkur davr mobaynida amalga oshirilgan pul islohotlarining tahlili, tarixiy va amaliy jihatdan o‘rganilishi iqtisodiyot fanining nazariy asoslarini boyitish bilan birga, amaliy siyosat uchun ham muhim dars bo‘la oladi. Rivojlanayotgan boshqa mamlakatlar uchun esa O‘zbekiston tajribasi iqtisodiy o‘tish davridagi strategik yondashuvlarni ko‘rsatadigan o‘ziga xos model sifatida qaralishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (1994–2024). Yillik hisobotlar. Toshkent: MB nashriyoti. <https://www.cbu.uz>
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. (1991–2024). Statistik byulletenlar va rasmiy ma’lumotlar. Toshkent: DSQ. <https://www.stat.uz>
3. Karimov, I.A. (1993). O‘zbekiston – bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘lida. Toshkent: O‘zbekiston. – 256 b. (s. 28–94)
4. Qodirov, D. (2023). O‘zbekiston pul tizimi: tarix, nazariya va amaliyot. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti. – 384 b. (s. 115–270)
5. Sodiqov, M. (2020). “Inflyatsiya jarayonlari: nazariy asoslar va O‘zbekiston tajribasi”, Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, №4. – B. 45–58.
6. Komilov, A. (2019). “Pul-kredit siyosatining milliy iqtisodiyotga ta’siri”, Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, №5. – B. 33–47.
7. Mamarasulov, A. (2021). “Pul munosabatlari rivojlanishining tarixiy bosqichlari”, TDIU ilmiy jurnali, №2. – B. 51–67.